

## O`QUV DASTUR PASSPORTI

O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'limdi  
Muvofiqlashtiruvchi kengashda tasdiqlangan 2025 yil dagi IXT - 288  
3 sonli bayonnomasini asosida

Amal qilish muddati 2027 yil gacha

<b>Ta'lim muassasasi nomi</b>	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
<b>Kafedra/bo'lim</b>	Neyroreabilitasiya		
<b>O'quv dastur nomi</b>	Funktional Diagnostika		
<b>O'qish turi</b>	ixtisoslashtirish kursi		
<b>O'quv dastur muallifi mualliflari</b>	Mirdjuraev E.M, Baxadirova M.A, Shadmanova L.A, Akilov J.X.		
<b>Siklning umumiy soati</b>	o'qish hajmi– 288 kredit		
<b>Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar</b>			
			
Kafedra mudiri t.f.d. Professor Mirdjuraev E.M.	DSc, kafedra professori Baxadirova M.A	t.f.n., dotsent Shadmanova L.A.	t.f.n., dotsent Akilov J.X.
<b>Maqsad</b>	Jahon ilm-fani va amaliyotining zamonaviy yutuqlari asosida, malakaviy tavsiflarga muvofiq ravishda mahalliy sog'liqni saqlash xususiyatlarini hisobga olgan holda, nevrologiyada funksional diagnostika bo'yicha mutaxassis vazifalarini bajara oladigan, tegishli tibbiy mutaxassislik bo'yicha bilimlarni o'zlashtirilgan funksional diagnostika mutaxassislarini tayyorlash.		
<b>Tsiklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent</b>	Umumi amaliyot shifokorlari va kamida 2 – yil tajribasiga ega bo'lgan boshqa klinik mutaxassislar uchun mo'ljallangan.		
<b>Tsikl vazifalari</b>	<p>Tinglovchilar uchun siklning tegishli dasturini chuqr va yangilangan to'liq o'qitishga imkon beruvchi doimiy, tizimli, izchil va boshqariladigan o'quv jarayonini tashkil etish.</p> <p>Kasbiy muammolarini muvaffaqiyatli bartaraf eta oladigan, asosiy va fundamental bilimlarini keng va chuqr shakllantirib funksional diagnostika ya'ni neyrofiziolog mutaxassisini tayyorlash.</p> <p>Murakkab patologiyani va klinik fikrlashini yaxshi biladigan, tegishli boshqa fanlardan chuqr bilimlarga ega bo'lgan nevrologiyada funksional diagnostika kabi kasbiy tayyorgarligini shakllantirish.</p> <p>Neyrologiyada funksional diagnostika sohasidagi professional manfaatlar, eng yangi texnologiyalar va ko'nikmalarni o'zlashtirishda shakllantirish.</p> <p>Mustaqil kasbiy davolash, natijalarni tahlil qilish va tashxislash, turli xil diagostika tekshiruvlarini (taqqoslama diagnostika) o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan funksional diagnostika shifokorini tayyorlash.</p>		

	Favqulotda va tezkor yordamni ta'minlash va ko'rsatish uchun funksional diagnostikani tahlil qila oladigan va umumiy tibbiy manipulyasiyalarini bajara oladigan shifokorni tayyorlash.
Tsikl tarkibi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>Modul.</b> O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi – sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, yangi me'yoriy hujjatlar.</li> <li>2. <b>Modul.</b> Neyrofiziologiyaning nazariy asoslari</li> <li>3. <b>Modul.</b> Elektroensefalografiyaning biofizik asoslari</li> <li>4. <b>Modul.</b> Klinik elektroansefalografiya asoslari</li> <li>5. <b>Modul.</b> Bosh miyaning chaqirilgan potensiallari.</li> <li>6. <b>Modul.</b> Bosh miya po'stlog'ini magnit stimulyatsiyasi.</li> <li>7. <b>Modul.</b> Klinik reoensefalografiya</li> <li>8. <b>Modul.</b> Elektroneyromiografiya asoslari.</li> <li>9. <b>Modul.</b> Klinik fiziologiya va vegetativ asab tizimining funksional diagnostikasi</li> <li>10. <b>Modul.</b> Exoensefalografiya asoslari</li> <li>11. <b>Modul.</b> Dunyoda funksional diagnostikaning zamonaviy yuqori informatsion usullari.</li> </ol>
O'qish bazalari	<p>1 sonli ShKSh</p>  <p>Neyrohelp xususiy markazi</p> 
	<p>Simulyatsion asbob/uskunalar</p>  <p>Reception area of the Neyrohelp center.</p> 